



## SHAHRISABZ MUZEY-QO‘RIQXONASIDA SAQLANAYOTGAN EKSPONATLARNING O‘ZBEK AMALIY SAN‘ATIDAGI O‘RNI

**Temirov Asadbek,**  
*Shahrisabz davlat muziy qo‘riqxonasi*  
*Katta ilmiy xodimi*

**Xurramov Murodjon,**  
*Oq saroy filial rahbari*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606057>

**Annotatsiya.** *Shahrisabz davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 520 ta amaliy san‘at buyumi (asosan XIX–XX asrlar) o‘zbek milliy hunarmandchiligining noyob namunalarini o‘z ichiga oladi. Iroqi do‘ppilar, bigizkashta so‘zanalari, kandakorlik buyumlari, bargak taqinchoqlari va yog‘och o‘ymakorligi eksponatlari Shahrisabz maktabining o‘ziga xos uslublarini aks ettirib, Temuriylar an‘analarining davomi sifatida muhim o‘rin tutadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Iroqi do‘ppi, So‘zana, Bigiz kashta, So‘zana, Bargak, Kandakorlik, Zargarlik, Sandiq, Do‘ppido‘zlik va boshqalar.*

**Annotation.** *The collection of the Shakhrisabz State Museum-Reserve includes 520 applied art objects (mainly 19th–20th centuries), showcasing unique examples of Uzbek folk craftsmanship. Exhibits feature iroqi skullcaps, bigizkashta suzanis, chased metalwork, bargak forehead ornaments, and wood carving, highlighting the distinctive style of the Shakhrisabz school and the continuity of Timurid artistic traditions.*

**Keywords:** *Iraqi doppi, Suzana, Bigiz kashta, Suzana, Bargak, Kandakorlik, Jewelry making, Chest making, skullcap making, and others.*

**Kirish.** Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan do‘vruq qozongan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug‘ zotlar benihoyat ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir.

Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma‘nosi — Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat degan oliy qadriyatlardan iboratdir. U hatto umrining so‘nggi onlarida ham zurriyodlariga qarata “Istiqloq bilan mulku millat, lashkar va ra‘iyatni boshqaringiz” deb vasiyat qilgan.

(Islom Karimov asari “Yuksak manaviyat Yengilmas kuch” 2008 yil)

“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida 2025–2026 yillarga oid rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, amaliy san‘at bo‘limida 520 ta noyob buyum saqlanmoqda. Shulardan 16 ta eksponat noyob bo‘lib temuriylar va Buhoro xonligi davriga oiddir. Bu kolleksiya asosan XIX–XX asrlarga oid bo‘lib, Shahrisabz va Kitob maktablarining o‘ziga xos uslublarini yorqin ifodalaydi. Ushbu eksponatlar nafaqat mahalliy hunarmandchilikning yuqori cho‘qqisini, balki Temuriylar davridan kelib chiqqan bezak an‘analarining uzviy davomi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Muzeydagi amaliy san‘at buyumlari o‘zbek milliy merosida quyidagi



yo‘nalishlarda alohida o‘rin tutadi: Iroqi do‘ppilar – Shahrisabzning ramziy durdonasi. [1, B.176] Yozma manbalardan 18-asrda iroqi do‘ppilar ko‘plab tiqilgani ma‘lum. 19-asr 1- yarmi va o‘rtalariga oid kashtalarda (Buxoro, Samarqand, Nurota) chamanzorlar tasvirlangan. Shaxrisabzda „abr“ bezakli matolar to‘qila boshlangan. Iroqi tikuv texnikasi (terma va bosma chok usullari) bilan yaratilgan do‘ppilar muzeyning eng mashhur va noyob qismi hisoblanadi. Shahrisabz va Kitob do‘ppido‘zlari tomonidan tayyorlangan bu do‘ppilar O‘zbekistonning eng yuqori sifatli iroqi maktablari sifatida tan olingan. Texnik xususiyatlari: Kanva yoki bo‘ronboy matoga rangli ipak yoki ingichka paxta iplari bilan zich tikilgan naqshlar (gulzor, novda, qushcha motivlari). Ranglar: Ko‘pincha yorqin qizil, sariq, yashil, pushti va ko‘k ranglar ustunlik qiladi. O‘rni: Bu uslub nafaqat Shahrisabzda, balki Toshkent, Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlarda ham tarqalib, o‘zbek do‘ppido‘zlik san‘atining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. [2, B.126] Muzeydagi XIX–XX asr namunalari ushbu texnikaning eng mukammal shakllarini namoyish etadi. Bigizkashta (so‘zana) va kashtachilik Shahrisabz kashtachiligi Temuriylar me‘moriy bezaklaridan (koshin, mozaika naqshlari) ilhomlanib rivojlangan. Muzeydagi so‘zanalarda: Gulzor va barg motivlari ko‘p uchraydi. Rang kombinatsiyalari yorqin va kontrastli (qizil-yashil, sariq-ko‘k). Markaziy Osiyoda kam uchraydigan o‘ziga xos uslub bo‘lib, milliy libos va uy bezak madaniyatining ajralmas qismi sifatida saqlanmoqda. So‘zana – forscha so‘zana deb xam yuritiladi. Igna bilan tikilgan degan ma‘noni beradi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani 156 bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o‘ziga xos badiiy ko‘rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamin sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So‘zana xar bir xonadonda bo‘lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o‘zi uchun so‘zana tayyorlagan. So‘zana kelinlarning sepi xisoblangan. Kambagal oilada so‘zanani malla, oq bo‘zdan, badavlatlarida esa shoyidan, baxmaldang tikishgan. So‘zana uchun kompozitsion joylashgan o‘simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So‘zana o‘rtasida ko‘pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. So‘zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo‘lib, XIX asrgacha bo‘lgan so‘zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg‘ona, O‘rtatepa, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so‘zana turlaridan namunalar bor. San‘atning bu turi ayniqsa O‘zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so‘zana mashinada tikilib kelmoqda.

**Kashtachilik** O‘zbek milliy kashtachiligi (kashtado‘zlik) amaliy san‘atning eng qadimiy turlaridan bulib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal kilish istagi natijasida yuzaga kelgan. [3, B.776] Kashtachilik san‘ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat qozongan, misol tariqasida O‘zbek xalk ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpech, so‘zana, zardevor, gulkurpa, choyshab kabilar. Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Xindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg‘ona vodiysida faqat xonadonlarda emas,



balki mo‘zaylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Xozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni xayratga solib kelmoqda. Badiy kashtachilik o‘zoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq xolda barcha kasb-xunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san‘atining eng qadimiysi bizgacha saqlanib qolmagan bo‘lsada XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida O‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligiga yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bexzod “Zafarnoma”ga ishlagan “Temur taxtda” miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko‘p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazadi. Gul kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillargina saqlanib qoldi. [6, B.556] O‘zbek kashtachiligi qo‘shni xalqlar kashtachiligi ta‘sirida boyidi va rivojlandi. O‘zbek kashtachilariga nazar solsak, unda Xind, Xitoy, Rus, Afg‘on, Qozoq, Qirg‘iz va Tojik kashtachilarining usul va uslublarini uchratamiz. O‘zbek kashtachilarida o‘simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko‘p bo‘lsa, rus kashtachiligida geometrik, o‘simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko‘p tasvirlanadi. Qozoq va qirg‘iz kashtachiligida esa ko‘proq xayvonlar, shox va tuyoqlarini eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Qadimiy an‘analarga ko‘ra, O‘zbek qizlari – bo‘lajak kelinchaklar seplari – xar xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar kanchalik 153 nozik, chiroyli bo‘lsa, qayliq shunchalik yuqori baxolanar edi. Qizlar 7-9 yoshdan boshlab kashta tikishga o‘rgatilardi. Ular uch, to‘rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o‘zining san‘ati va tabiatiga ko‘ra go‘zallik xaqidagi orzularini ifodalashga xarakat qilganlar. Kashtachilikning maxsus turlaridan biri – applikatsiyadir.[4, B.59] XVIII-XIX-asrlarda mahobatli binolarni ayniqsa ichki qismini koshin, tosh, ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatish davom etdi. Kulollik va kandakorlik san‘ati yuksak darajaga ko‘tarildi. Kandakorlikning Buxoro, Qarshi, Xiva, Shahrisabz uslublari vujudga keldi (qarang Qo‘qon kan-dakorlik maktabi, Buxoro kandakorlik maktabi). Amaliy bezak san‘atining boshqa turlarining mahalliy uslublari shakllandi. Kandakorlik (metall o‘ymakorligi) XVIII-XIX -asrlar zargarlari qadimgi zargarlik san‘ati an‘analarini davom etti-rishdi. Yozma manbalarga ko‘ra 18-asr zar-garlari oltin va kumushga qimmatbaho toshlar qadab toj va kamarlar, Kurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. XIX -asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf kabi qimmatbaho toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yaratishgan. Ularga bolg‘alab (zarb berib), hallab o‘yib, bo‘rttirib naqsh yasab, bosib (siqib), qoliplash usullarida ishlov berilgan. Shahrisabzlik kandakor ustalar tomonidan ishlangan kumush va mis buyumlar (qumg‘onlar, idishlar, taqinchoqlar) nozik o‘yma va bo‘rtiq naqshlari bilan ajralib turadi. Vardonze, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz, Toshkent



kulollarining buyumlari o‘ziga xos shakli, bezak mujassamotlari, naqshlari bilan ajralib turgan. 20-asr boshlarida O‘zbekiston amaliy bezak san‘ati qadimgi an‘analarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi. XX asr boshlariga oid qumg‘onlar, kandakor bezakli idishlar. O‘zbek zargarlik va uy-ro‘zg‘or buyumlarida keng tarqalgan uslubning yorqin namunalari bo‘lib, yuqori texnik sifat va estetik mukammallikni ko‘rsatadi [5, B.529] Bargak – ayollar taqinchoqlari. Barg shaklidagi peshona va soch bezaklari (bargaklar) qadimiy ramziy ma‘nolarni (hayot, yangilanish, tabiat tirilishi) saqlagan. Material: Kumush, ko‘pincha tilla suvi yugurtirilgan (“tilla bargak”). Ahamiyati: O‘zbek zargarlik san‘atining semantik va estetik boyligini namoyish etuvchi noyob namunalari. Yog‘och o‘ymakorligi va boshqa buyumlar Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) Shahrisabzda yog‘och o‘ymakorligi an‘anaviy Markaziy Osiyo hunarmandchiligining muhim qismi bo‘lgan, ammo bu soha asosan me‘morchilik va ichki bezaklarda qo‘llanilgan. Amir Temur va uning vorislari hukmronligi davrida Shahrisabz (qadimgi Kesh) shahri imperiyaning muhim markazlaridan biri sifatida rivojlangan, fan, san‘at va hunarmandchilik gullagan. [7, B.246-bet] Temuriylar davrida binolar nafis bezaklar bilan bezatilgan bo‘lib, koshinkorlik, parchinkorlik, ganch o‘ymakorligi va yog‘och o‘ymakorligi keng qo‘llanilgan. Yog‘och o‘ymakorligi ko‘pincha quyidagi joylarda ishlatilgan: Saroy va masjidning ichki qismlari — eshiklar, deraza romlari, shiftlar, ustunlar va minbarlar bezakida. Maqbaralar va diniy majmualar — masalan, Dorus-Saodat yoki Dorut-Tilovat majmualarida yog‘och elementlar bo‘lishi mumkin edi. Umuman, Temuriylar me‘morchiligida yog‘och o‘ymakorligi naqshlari islamiy (o‘simliksimon), geometrik va ba‘zan epigrafik (yozuvli) uslubda bo‘lgan. Shahrisabzda bu san‘atning eng muhim namunasi sifatida Shahrisabz davlat muzeyi-qo‘riqxonasida saqlanayotgan Amir Temur davriga oid yog‘och eshik bor. Bu eshik o‘yma naqshlari bilan bezatilgan bo‘lib, Temuriylar davri yog‘och o‘ymakorligining noyob saroyi) asosan g‘isht, koshin va toshdan qurilgan bo‘lsa-da, ichki bezaklarda yog‘och ishlatilgan. [8, B.336] Oqsaroy (1380–1404) kabi ulkan inshootlarda yog‘och o‘ymakorligi qo‘llanilganligi haqida ma‘lumotlar mavjud, ammo bugungi kunda asosan vayronalar saqlangan. Temuriylar davrida Shahrisabz hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lgan, shu jumladan yog‘och ustalarining mahorati yuqori baholangan. Bu san‘at keyingi asrlarda ham rivojlanib, o‘zbek milliy hunarmandchiligining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Uy-ro‘zg‘or buyumlari (sandiqlar, darvoza bezaklari), sopol idishlar va milliy libos elementlari Temuriylar davridan keyingi an‘analarni davom ettirgan. [9, B.38-bet]

**Umumiy xulosa** va o‘zbek amaliy san‘atidagi o‘rni Shahrisabz muzeyidagi 520 ta amaliy san‘at buyumi quyidagi jihatlari bilan o‘zbek milliy hunarmandchiligida alohida turadi: Temuriy bezak an‘analarining XIX–XX asrlardagi davomi. Iroqi tikuv texnikasining eng yuqori cho‘qqisi (butun O‘zbekistonga ta‘sir ko‘rsatgan maktab). Hududiy o‘ziga xoslik: tabiat motivlari, yorqin ranglar, zich naqshlar (Farg‘ona, Buxoro, Xorazm maktablaridan farqli). Etnografik kontekstning saqlanishi:



to‘y marosimlari, oilaviy hayot va urf-odatlar bilan bog‘liq. Bu kolleksiya nafaqat Shahrisabzning o‘ziga xos maktabini, balki butun o‘zbek amaliy san‘atining rivojlanish yo‘nalishlari, an‘analar uzviyligi va mintaqaviy xilma-xilligini yorqin ko‘rsatadi. Hududiy o‘ziga xoslikning yorqin namoyishi — Farg‘ona, Buxoro, motivlari (barg, gulzor), yorqinroq ranglar va zichroq naqshlar ustunlik qiladi. Etnografik merosning saqlanish markazi — Muzey nafaqat buyumlarni saqlaydi, balki ularning madaniy kontekstini (urf-odatlar, to‘ylar, oilaviy hayot) ham yoritib beradi. [10, B. 176]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san‘at. –T.: Ilm ziyo, 2010
2. Masharipova S.A. San‘at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. –T.: TAQI, 2013
3. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Almeev, R. Shahrisabz muzey-qo‘riqxonasi va uning madaniy merosdagi o‘rni haqida umumiy ma‘lumotlar, shu jumladan amaliy san‘at eksponatlari. (2007 yil)
5. Ilalov, I.N. Muzeyshunoslik va O‘zbekiston muzeylari, jumladan Qashqadaryo (Shahrisabz) muzeylari va ularning amaliy san‘atdagi roli haqida darslik. (2006yil).
6. Mirziyoev, Sh. Madaniyat va san‘atni rivojlantirish, shu jumladan muzeylar va amaliy san‘at eksponatlarini saqlash bo‘yicha rasmiy hujjat. (2017yil)
7. Karimov, I. O‘zbekiston madaniy merosi va muzeylarning ruhiy-ma‘rifiy qiymati, amaliy san‘at eksponatlari kontekstida. (2008yil)
8. Nazarov, K. va Jumayev, S. Qashqadaryo (Shahrisabz) muzey-qo‘riqxonalarini va ularning turizm va madaniy merosdagi o‘rni, amaliy san‘at eksponatlari haqida. (2020yil)
9. Jumladan: ‘Musical Legacy of Uzbekistan’. O‘zbekiston amaliy san‘ati (gilamchilik, kashtachilik, musiqiy asboblar) va Shahrisabz merosi haqidagi kitob-albomlar. (2017yil)
10. Thons, I. va Thons, B. (2020). Uzbekistan: Along the Silk Road to Tashkent, Samarkand, and Khiva. O‘zbekiston muzeylari va madaniy joylari, jumladan Shahrisabz va amaliy san‘at eksponatlari haqida kitob